XALQ DEPUTATLARI KITOB TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 7 - iyun VI-83-69-4-62-K/23 Kitob tuman hokimligi

Kitob tumani Kuhsor mahallasidagi yangidan tashkil topgan hamda nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalar nomlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qo‘mitasi davlat ekspertizasining 2023-yil 5-apreldagi 08-02416-sonli xulosasi va tuman hokimining taklifini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Davlat ekspertizasining 2023-yil 5-apreldagi 08-02416-sonli xulosasi hamda tuman hokimining taklifi ma’qullansin.

2. Kitob tumani Kuhsor mahallasidagi yangidan tashkil topgan hamda nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalar nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat Kadastrlar palatasi viloyat boshqarmasi Kitob tumani filiali (I.Yusupov) xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasi mazkur qarori qabul qilingandan so‘ng 10 kun muddatda aholi punktlari nomlarini davlat reyestriga kiritish uchun taqdim etsin.

4. “Kuhsor” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi yangidan tashkil topgan va nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalar nomlari bo‘yicha aholi o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borsin.

5. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (B.Turayev) Kuhsor mahallasidagi yangidan tashkil topgan hamda nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalar

nomlarini peshlavhalarga yozib, o‘rnatilishini tashkil etsin.

6. Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i I.Tog‘ayev yangidan nomlangan ko‘chalarda yashovchi aholiga fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur o‘zgarishlarga e’tibor qaratsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Kamilov) hamda tuman hokimi birinchi o‘rinbosari vazifasini vaqtincha bajaruvchi T.Nasimov zimmalariga yuklatilsin.

8. Mazkur qarorni tuman “Kitob ovozi” gazetasida yoritish tavsiya etilsin.

9. Qaror ko‘chalar nomlari davlat reyestriga kiritilgan kundan boshlab rasman kuchga kiradi.

Sessiya raisi **Pardayev U.B**

Xalq deputatlari Kitob tuman
Kengashining
2023-yil 7-iyundagi
VI-83-69-4-62-K/23-son qaroriga
1-ilova

Kitob tumani Kuhsor mahallasidagi yangidan tashkil topgan hamda nomi o‘zgartirilgan ko‘chalar to‘g‘risida

Kuhsor mahallasi Jovuz va Matmon qishloqlari ko‘chalarining respublika ekspertiza komissiyasi tasdiqlagan nomlari

T/r	Geografik obyekt joylashgan mahalla	Geografik obyekt joylashgan qishloq, shaharcha	Geografik obyekt turi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Ekspertiza komissiyasi tasdiqlagan nom
1.				Nomsiz	Qoziyon
2.				Sumsartog‘	Chormag‘zzor
3.		Matmon		Tagi Matmon	To‘dashahidon